

MIRZO ULUG'BEK NOMIDAGI
O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI

SHARQ TARIXI,
SIYOSATI VA
HUQUQI
JURNALI

ВОСТОЧНЫЙ
ЖУРНАЛ
ИСТОРИИ,
ПОЛИТИКИ
И ПРАВА

ORIENTAL
JOURNAL OF
HISTORY,
POLITICS
AND LAW

ISSN 2181-2780

2025





SPECIFIC FEATURES OF CIVIC IDENTITY FORMATION IN NEW UZBEKISTAN

Ismoiljon Khujakhonov

Associate Professor, Department of Social and Humanitarian Sciences

Oriental University

Senior Research Fellow, "Applied Ethnology" Laboratory at the National University of Uzbekistan PhD candidat

Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: New Uzbekistan, civic identity, Uzbekistani identity, interethnic harmony, legal culture, multiculturalism, civil society.

Received: 10.11.25

Accepted: 11.11.25

Published: 12.11.25

Abstract: This article examines the specific features of shaping civic identity in the context of the "New Uzbekistan." It compares ethnic and civic approaches to identity formation, highlighting the factors of interethnic harmony, cultural diversity, and legal culture in strengthening civic consciousness. Drawing on the theoretical perspectives of J. Habermas, B. Anderson, and E. Allworth, the paper explains the philosophical and social essence of civic identity. Using the Constitution of Uzbekistan, presidential decrees, and international experiences as examples, the concept of "Uzbekistani" identity is interpreted as a comprehensive and inclusive model of citizenship.

YANGI O‘ZBEKISTONDA FUQAROVIIY O‘ZLIKNI SHAKLLANTIRISHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Ismoiljon Xo‘jaxonov

O‘zbekiston Respublikasi Oriental universiteti dotsenti,

O‘zMU huzuridagi "Amaliy etnologiya"

laboratoriyasi katta ilmiy xodimi, t.f.n.

Toshkent, O‘zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so‘zlar: Yangi O‘zbekiston, fuqaroviy o‘zlik, o‘zbekistonlik identifikatsiyasi, millatlararo totuvlik, huquqiy

Annotatsiya: Mazkur maqolada "Yangi O‘zbekiston" sharoitida fuqaroviy o‘zlikni shakllantirishning o‘ziga xos xususiyatlari tahlil qilinadi. Fuqaroviy

madaniyat, multikulturalizm, fuqarolik identifikatsiyaning etnik va fuqarolik jamiyati. yondashuvlari solishtiriladi, davlat siyosatida millatlararo totuvlik, madaniy xilma-xillik va huquqiy madaniyatni mustahkamlash omillari yoritiladi. Habermas, Anderson, Allworth kabi olimlarning nazariy qarashlari asosida fuqarolik o'zligining falsafiy va ijtimoiy mazmuni izohlanadi. Shuningdek, O'zbekiston Konstitutsiyasi, Prezident farmonlari va xalqaro tajribalar misolida "o'zbekistonlik" identifikatsiyasi keng qamrovli, inklyuziv fuqarolik modeli sifatida talqin qilinadi.

ОСОБЕННОСТИ ФОРМИРОВАНИЯ ГРАЖДАНСКОЙ ИДЕНТИЧНОСТИ В НОВОМ УЗБЕКИСТАНЕ

Исмоилжон Хужахонов

Доцент кафедры "Общественно-гуманитарные науки"

Oriental university, старший научный сотрудник лаборатории

«Прикладная этнология» при НУУз, канд. ист. наук

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

<p>Ключевые слова: Новый Узбекистан, гражданская идентичность, узбекистанская идентичность, межнациональное согласие, правовая культура, мультикультурализм, гражданское общество.</p>	<p>Аннотация: В статье анализируются особенности формирования гражданской идентичности в условиях «Нового Узбекистана». Рассматриваются этнический и гражданский подходы к пониманию идентичности, а также факторы укрепления межнационального согласия, культурного многообразия и правовой культуры. На основе идей Ю. Хабермаса, Б. Андерсона, Э. Олворта раскрывается философское и социальное содержание гражданской идентичности. На примере Конституции Узбекистана, президентских указов и международного опыта «узбекистанская» идентичность трактуется как всеобъемлющая и инклюзивная модель гражданственности.</p>
---	---

Kirish. So'nggi yillarda O'zbekistonda olib borilayotgan izchil islohotlar fuqarolarning davlat va jamiyat bilan o'zaro munosabatini qayta talqin qilishga, fuqaroviy o'zlik tushunchasining yangicha mazmunda shakllanishiga zamin yaratmoqda. "Yangi O'zbekiston" tamoyili fuqarolik ongining mustahkamlanishi, millatlararo totuvlik, huquqiy madaniyat va ijtimoiy adolatga asoslangan fuqarolik jamiyatini barpo etish g'oyalarini ilgari surmoqda.

XXI asrda fuqaroviy o'zlik masalasi ko'plab davlatlar uchun ijtimoiy barqarorlik, millatlararo totuvlik va siyosiy uyg'unlikning negiziga aylanmoqda. O'zbekiston kabi ko'p millatli va turli konfessiyalar vakillari istiqomat qiluvchi jamiyatda bu masala alohida dolzarbdir. "Yangi O'zbekiston" g'oyasi fuqaroviy ongini mustahkamlash, davlat va jamiyat o'rtasida ishonchli aloqalarni rivojlantirish orqali fuqaroviy o'zlikni shakllantirishga qaratilgan keng qamrovli strategik yondashuvni taqdim etmoqda.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. O'zbek milliy o'zligi mavzusiga mustaqillik yillarida qiziqish ortgan bo'lishiga qaramay, ushbu mavzuni, xususan fuqaroviy o'zlik bilan bog'liq jihatlarni to'laqonli o'rganilgan deyish mushkul. Bu davrda o'zbek o'zligining u yoki bu jihatlari A.Asqarov, A.Ilhomov, A.Ashirov, S.Abashin, A.Xalid, I.Baldauf, P.Finke kabi tadqiqotchi olimlarning ishlarida o'rganilgan. Masalan, A.Asqarov o'zbek xalqining kelib chiqishi masalasi doirasida [1], S.Abashin, A.Xalid o'zbek millatining shakllanishi [2], P.Finke o'zbek identikligidagi hududiy xususiyatlar[3] doirasida o'rgangan. Shuningdek, ushbu asarlarda o'zbek xalqining fuqaroviy o'zligi masalasiga ham ma'lum darajada e'tibor qaratilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Mavzuni yoritishda ilmiy adabiyotlar, davriy nashrlar, internet ma'lumotlari va muallifning dala etnografik materiallari qiyosiy tahlil qilinib, izchillik va qiyosiy tahlil metodidan foydalanildi.

Tahlil va natijalar. Fuqaroviy o'zlik – bu insonning o'zini muayyan davlatning fuqarosi sifatida anglash, ushbu davlat bilan o'zining huquqiy, axloqiy va madaniy bog'liqligini tan olishi hamda uni ichki e'tiqod darajasida qabul qilishidir. Bu tushuncha ijtimoiy psixologiya, siyosatshunoslik va madaniyatshunoslik fanlarida ko'pdan buyon tahlil qilinib kelmoqda. J. Habermas singari g'arb olimlari fuqaroviy o'zlikni universal qadriyatlar asosida jamiyatni birlashtiruvchi omil sifatida ko'rganlar. Uning ta'kidlashicha, fuqarolik o'zligi "konstitutsiyaviy vatanparvarlik" g'oyasiga tayanishi lozim, ya'ni har bir fuqaro davlat tuzumini va konstitutsiyaviy qadriyatlarni ichki e'tiqod sifatida qabul qilgan bo'lishi kerak[4].

O'zbekiston mustaqillikka erishgach, davlat o'zining milliy mafkurasini shakllantirish yo'lini tanladi. Bu mafkura "o'zbek" milliy o'zligini asliga qaytarish, tarixiy merosni tiklash, davlat ramzlari va umumxalq qadriyatlari asosida fuqarolik birlikni ta'minlashga qaratilgan edi. Ammo, davlatda ko'p millatli jamiyat mavjudligi sababli, bu jarayon bir vaqtning o'zida siyosiy noziklikni ham talab qilardi. Chunki faqat "etnik o'zbek" o'zligiga urg'u berish boshqa millatlar vakillarini o'zga his qilishlariga olib kelishi mumkin edi.

O'zbekistonda fuqarolik millatini shakllantirish borasida ikki yo'nalish mavjud: etnik va fuqarolik.

Etnik yondashuvda "millat" atamasi ko'proq o'zbek etnosiga nisbatan qo'llanadi. Fuqarolik yondashuvida esa barcha millat vakillari "o'zbekistonlik" degan yagona identifikatsion kategoriya

atrofida birlashtiriladi. Bu yondashuv, zamonaviy demokratik jamiyat qurish yo'lida afzal deb qaralmoqda. Chunki u tenglik, inklyuzivlik va umumiy qadriyatlar asosida shakllangan fuqarolik birdamligini ta'minlash imkonini beradi. Fuqarolik o'zligi davlat siyosati tomonidan rag'batlantirilayotgan bo'lsa-da, odamlar ongida hanuzgacha etnik o'zlik ustuvor bo'lib qolmoqda. Bu esa "o'zbekistonlik" tushunchasining jamiyatda to'liq singishiga to'sqinlik qilmoqda. Misol tariqasida, o'zini qirg'iz, tojik yoki rus deb biladigan fuqarolar "o'zbekistonlik" tushunchasini o'z etnik o'zliklarini yo'qotish deb qabul qilishlari mumkin. Demak, fuqarolik o'zligini kuchaytirish uchun davlat siyosati chuqurroq madaniy-ma'naviy asosda olib borilishi kerak.

Milliy bayroq, gerb, madhiya, konstitutsiya, til, tarixiy shaxslar timsoli kabi ramzlar jamiyatda umumiy fuqaroviy ongni shakllantirishga xizmat qiladi. Ammo bu ramzlar barcha millatlar tomonidan birday qabul qilinishi va ichki e'tiqodga aylanishi uchun ular faqat etnik o'zbeklarning emas, balki butun O'zbekiston fuqarolarining umumiy qadriyatlari sifatida talqin etilishi zarur.

Milliy mafkura jamiyatni fuqarolik tamoyillariga asoslangan tarzda birlashtirishni ko'zlashi kerak. Bu yo'lida quyidagi omillar hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi: millatlararo totuvlik va madaniy xilma-xillikni tan olish; tarixiy xotira va umumiy tarixiy ramzlarni yaratish; yoshlar orasida fuqaroviy ongni shakllantirish; millat va elatlar o'rtasida tenglik va ishonchni ta'minlash.

Yangi O'zbekistonda aynan mana shu yondashuvga yaqinlashish holatlarini kuzatish mumkin. Fuqaroviy o'zlik endilikda faqat milliy o'zlik doirasida emas, balki ijtimoiy birdamlik, inson huquqlari va ijtimoiy mas'uliyat asosida shakllanmoqda. Bugungi kunda "o'zbekistonlik" tushunchasi keng qamrovli, inklyuziv o'zlik modeliga aylanish yo'lida rivojlanmoqda. Bu model jamiyatdagi barcha etnik, diniy va ijtimoiy guruhlar uchun tenglik, hurmat va ishtirok imkoniyatini yaratishga intiladi.

Mazkur model amerikalik antropolog Benedikt Andersonning "siyosiy millat" konsepsiyasiga mos keladi. Andersonga ko'ra, millat – bu fuqarolarning o'zaro bevosita tanish bo'lmasa ham, o'zini bitta hamjamiyatga tegishli deb his qiladigan ijtimoiy konstruksiyadir [5]. O'zbekistonda "o'zbekistonlik" o'zligi ham davlat va yurt ravnaqi yo'lida millat va elatlar birligi shaklida shakllanmoqda.

Bu tamoyil O'zbekiston Konstitutsiyasida mustahkamlangan bo'lib: "fuqarolarning munosib hayot kechirishini, millatlararo va konfessiyalararo totuvlikni, ko'p millatli jonajon O'zbekistonimizning farovonligini va gullab-yashnashini ta'minlashni maqsad qilgan holda" [6] qabul qilingan.

Sovet davrida milliy o'zlik "shaklan milliy, mazmunan baynalmilal" tamoyiliga asoslangan edi. Bu modelda milliy xususiyatlar ikkinchi darajaga tushirilgan bo'lib, xalqaro do'stlik,

sotsializm mafkurasi ustuvorlik qilgan. Mustaqillik yillarida esa milliy o'zlik mustahkamlandi, ammo u fuqarolik identifikatsiyasini to'laqonli qamrab olmadi. Bugungi bosqichda esa milliy va fuqaroviy o'zlik o'zaro uyg'unlashmoqda. Shu jarayonda qadimiy tarixiy meros alohida ahamiyat kasb etadi. Xorazmiy, Ibn Sino, Alisher Navoiy, Amir Temur, Z.M. Bobur kabi shaxslar, "Navro'z", mehmondo'stlik, bag'rikenglik, qo'ni-qo'shnichilik kabi milliy qadriyatlar nafaqat milliy g'urur manbai, balki fuqarolik madaniyatini shakllantiruvchi tarixiy timsollardir. Bu yondashuv E. Allworth tomonidan ham e'tirof etilgan: "O'zbeklar tarixiy merosi milliy o'zlikning asosiy manbai, ammo u boshqa millatlarni inkor etmasdan birlashtira oladigan shaklda talqin qilinishi kerak". Bugungi kunda "Xalqlar do'stligi kuni", "Mustaqillik bayrami", "Xotira va qadrlash kuni" kabi bayramlar ham milliy birlikni mustahkamlashda muhim o'rin tutmoqda.

Mamalakatda millatlararo totuvlik, o'zaro muloqot madaniyatining shakllanganligi va diniy bag'rikenglikning ta'minlanganligi ham katta ahamiyatga ega. 2025-yil 19-mart kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan qabul qilingan PF-52-sonli farmon "Umummilliy totuvlik va xorijdagi vatandoshlar bilan aloqalarni mustahkamlashni yangi bosqichga olib chiqishga oid chora-tadbirlar to'g'risida"gi hujjat ushbu yo'nalishda tub burilish yasadi. Farmonda "O'zbekiston yagona Vatan!" shiori ostida anjumanlar tashkil etish, "O'zbekiston madaniy boyligi" ko'chalarini barpo etish va "Birgalikda kuchmiz" aksiyalari orqali ekologik va ijtimoiy masalalarga e'tibor qaratish kabi tashabbuslar ko'zda tutilgan. Bu tadbirlar nafaqat mamlakat ichidagi millatlarni birlashtirishga, balki ularning umummilliy maqsadlarga xizmat qilishda faol ishtirokini rag'batlantirishga xizmat qiladi.

Farmonning yana bir muhim jihati xorijdagi vatandoshlar bilan aloqalarni mustahkamlashga qaratilgan yangi mexanizmlarni joriy etishdir. Xususan, "Uz Global Think" forumi va "Vatandoshlar" jamoat fondi orqali xorijdagi o'zbek diasporalarning milliy o'zligini saqlash, ularning ijtimoiy-iqtisodiy salohiyatini mamlakat taraqqiyotiga yo'naltirishga alohida e'tibor berilgan [7]. Bugungi global tendensiyalarda Kanada, Shvetsiya, Singapur singari ko'p millatli davlatlar "multikultural fuqarolik" modelini joriy qilgan. Bu modelga ko'ra, barcha guruhlarining tillari, dinlari va madaniyatlari hurmat qilinadi, ammo ularni umumiy fuqarolik qadriyatlari birlashtiradi. O'zbekiston bu modeldan ilhomlanib, o'zining "ko'p millatli fuqaroviy uyg'unlik modeli"ni shakllantirmoqda.

Xulosa va takliflar. Axborot texnologiyalari, ijtimoiy tarmoqlar va digital kommunikatsiya fuqarolik identifikatsiyasiga bevosita ta'sir ko'rsatmoqda. Endilikda fuqarolar o'z o'zligini faqat hududiy yoki etnik omillar bilan emas, balki ijtimoiy fikr, qadriyatlar va raqamli muhitda faol ishtirok orqali ham ifoda etmoqda. Shunday sharoitda davlat fuqarolik masalalarida raqamli inklyuzivlikni ta'minlashi lozim. Fuqaroviy o'zlikni shakllantirishda fuqarolik jamiyati institutlari, NNTlar, ta'lim muassasalari va ommaviy axborot vositalarining o'zni beqiyosdir.

Buning uchun bir qator ishlarni amalga oshirish muhim hisoblanadi, xususan, maktab va oliy ta'lim tizimida fuqarolik, konstitutsion huquqlar, millatlararo totuvlik kabi mavzular chuqur yoritish; "O'zbekistonlik" identifikatsiyasini ommaga tushunarli, estetik va qadriyatga boy shaklda ifodalovchi adabiy, san'at va publitsistik asarlar yaratish; Ommaviy axborot vositalarida milliy qadriyatlar bilan birga fuqarolik mas'uliyati mavzusi ham keng yoritish.

Yangi O'zbekistonda fuqaroviy o'zlikni shakllantirish murakkab, lekin zarur strategik vazifadir. "O'zbekistonlik" tushunchasi endilikda faqat siyosiy yoki huquqiy atama emas, balki jamiyatning barqaror rivojlanishiga asos bo'ladigan ijtimoiy-falsafiy model sifatida shakllanmoqda. Bu jarayonda fuqarolik madaniyati, tarixiy ong, axloqiy mas'uliyat va global integratsiya tajribalari uyg'unlashmoqda. O'zbekiston o'z tarixiy-madaniy an'analarini saqlagan holda, zamonaviy fuqarolik identifikatsiyasi modelini shakllantirish yo'lida muhim yutuqlarga erishmoqda. Bu model har bir fuqaroning "Men kimman?" degan savoliga javob topishiga yordam beradi va fuqarolarni yagona, inkluziv jamiyatga birlashtiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Асқаров А. Ўзбек халқининг келиб чиқиш тарихи. Тошкент: 2015.
2. Xalid A. O'zbekiston tavalludi (Ilk SSSR davrida millat, imperiya va inqilob). Toshkent: 2022. 424 B.
3. Finke P. Variations on Uzbek identity: Strategic choices, Cognitive Schemas and Political Constraints in Identification processes by Peter Finke. New York. 2014. 288 P.
4. Habermas, J. The Postnational Constellation: Political Essays. – MIT Press, 1998.
5. Anderson, B. Imagined Communities: Reflections on the Origin and Spread of Nationalism. – London: Verso, 1991. - P. 47.
6. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Muqaddima. <https://Lex.Uz/Docs/-6445145>
7. PF-52-sonli Prezident farmoni, 2025-yil 19-mart // <https://lex.uz/uz/docs/-7438950>.